



SINTAGMA FONETIK HODISAMI?

*Turniyazov Ne'mat Qayumovich,
SamDCHTI professori*

Kalit so'zlar: *sintagma, ichki sintagma, tashqi sintagma, aniqlovchi-aniqlanmish, ritmik guruh, sintagmatik munosabat, molekula.*

Sintagma nutqimizning kichik birligi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tilshunoslik adabiyotlarida bu haqda e'lon qilingan tadqiqot ishlari anchagina. Biroq shuni ham aytish kerakki, olimlar o'rtasida uning lingvistik maqomi haqida bildirilgan fikr va mulohazalar mushtarak emas. Ba'zilar uni fonetik hodisa deb ta'riflasalar, boshqalari bu o'rinda grammatik (sintaktik) hodisani ko'radilar. Quyida ana shu masala haqida batafsil so'z yuritimiz.

Sintagma tushunchasi dastlab F.de Sossyur ta'limotida qo'llanilganini ko'ramiz. Olim birinchilardan bo'lib, assotsiativ (paradigmatik) va sintagmatik munosabatdagi til birliklari haqida fikr bildirgan edi va shu jarayonda *sintagma* termini ham ilmiy iste'molga kiritiladi. F.de Sossyur sintagmani quyidagicha ta'riflaydi: «...nutqda so'zlar tilning to'g'ri chiziq bo'ylab qo'llanilishiga asoslangan holda, bir-birlari bilan munosabatga kirishadi. Bunda ular biri ikkinchisidan keyin bog'lanishli holatda keladi. Aynan ana shu hodisa *sintagmani* taqozo etadi. Shunday qilib, sintagma har doim kamida ikki birlikning o'zaro munosabatidan tashkil topadi» [1,155].

F.de Sossyur quyidagi misollarni keltiradi: *re-lire* «qayta o'qimoq», *contre tous* «hammaga qarshi», *lavie humaike* «inson hayoti», *s'il fait beau temps, nous sortirons* «Agar havo yaxshi bo'lsa, biz sayrga chiqamiz» [1,155].

Ko'rinadiki, sintagma bir so'z bilan, so'z birikmasi va hatto murakkab sintaktik qurilma bilan ifodalanishi ham mumkin. Ammo mazkur obyektlarning har birida aniqlovchi-aniqlanmish munosabati o'z ifodasini topmog'i lozim. Bu juda muhimdir.

S.O.Karsevskiy hatto ushbu ifodadan sintagma ta'rifini berishda foydalangan: «Aniqlovchi-aniqlanmish munosabatini sintagma deb atash mumkin» [2,24].

S.O.Karsevskiy sintagmani *ichki* va *tashqi* deb ataluvchi ikki turga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: *водовоз, домик, медвежёнok* – ichki sintagmalar; *маленький мальчик, мальчик читает, читает книгу, большую книгу* – tashqi sintagma [2,24].

S.O.Karsevskiyning sintagmaning lingvistik maqomi xususida aytgan mulohazalari ham F.de Sossyur ta'limotiga asoslanganini ko'ramiz. Biroq L.V.Sherba sintagmani fonetik hodisa sifatida talqin etadi: «...bir yoki bir necha ritmik guruhlardan tashkil topib, nutqda alohida ma'no butunligini ifoda etuvchi fonetik birlikni men sintagma deb atayman» [3,81].

L.V.Sherba bu o'rinda, asosan, fransuz tilshunosi M.Grammon ortidan borganligi izoh talab qilmaydi. Bu haqda so'z yuritganida A.A.Reformatskiy L.V.Sherbaning fikriga mutlaqo qarshi chiqadi: «Mazkur masala xususida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash joizki, intonatsiya sintaktik hodisa emas. Sintaktik birlik – so'z birikmasi, masalan, intonatsiyaga mutlaqo ega emas, gap esa bunday xususiyatni faqat fraza orqali kasb etadi. Demak, o'zicha u ham intonatsiyaga ega emas. Shu bois, *sintagma* terminini intonatsiya bilan bog'lash mutlaqo noo'rindir. M.Grammon, uning ortidan esa L.V.Sherba bu masalani boshi berk ko'chaga kiritib qo'yidilar» [3,18-19].

Biroq shuni ham aytish kerakki, L.V.Sherbaning sintagma haqidagi g'oyalarini V.V.Vinogradov davom ettirdi. Uning fikriga ko'ra, sintagma deganda, intonatsion va



ekspressiv jihatlardan sug'orilgan nutqning semantik-sintaktik birligini tushunmoq kerak. Bundan tashqari, V.V.Vinogradov sintagmani stilistik sintaksisning birligi deb ham aytadi [4,211]. Bunday vaziyat, albatta, masala tavsifini chalkashtirib yuborishi aniq.

V.V.Vinogradov L.V.Sherbaning sintagma haqidagi ta'limotiga barcha tilshunoslar asoslanishi lozimligini ham aytdiki, bu narsa sobiq Ittifoq davrida tilshunoslarning o'z fikr va mulohazalarini erkin aytishlariga yo'l qo'ymadi. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, Ittifoq davrida ham tilshunoslar o'z fikrlarini qaysidir darajada ayta oldilar. Fikr isbotini A.G'.G'ulomovning quyidagi so'zlarida ko'rishimiz mumkin: «Sintagma grammatik-semantik yaxlitlikni ko'rsatuvchi fonetik birlikdir. Demak, sintagma ikki qisqa pauza orasidagi nutqiy element – eng sodda sintaktik parchadir. Bu jihatdan qaraganimizda, gap bir tugal sintagmali yoki bir necha sintagmali bo'ladi. Sintagma bir necha so'zli va bir so'zli bo'ladi. ...Sintagmaning grammatik strukturasi aniqlovchi+aniqlanmish formasida bo'ladi» [5,23-24].

Bu o'rinda A.G'ulomov sintagmani, garchi fonetik birlik tushunchasidan foydalangan bo'lsa-da, F.de Sossyur ta'limoti asosida ta'riflaganini ko'ramiz. Darhaqiqat, sintagma bir so'zli (*belbog'*), so'z birikmasi qolipida bir necha so'zli (*paxta maydoni*), gap qolipli (*dars boshlandi*) va hatto murakkab sintaktik qurilma qolipli (*Bahor kelgach, gullar ochildi*) bo'lishi mumkinligi haqida F.de Sossyur dastlab ma'lumot bergandi. Ayni paytda berilgan misollarning barchasida ularning komponentlari o'rtasida aniqlovchi-aniqlanmish munosabati shakllanmoqda.

Ana shuning o'zi ham sintagmaning fonetik hodisa emas, balki sintaktik hodisa ekanligidan dalolat beradi. Zotan, sintagmaning lingvistik maqomini izohlashda hech qanday fonetik hodisaga murojaat etishga ehtiyoj sezilmaydi. Biroq ba'zi tilshunoslar tadqiqot ishlarida bu o'rinda fonetik va grammatik qoidalar qorishtirib yuborilmoqda. Masalan, buning dalilini O.S.Radionovning sintagma haqidagi

mulohazalarida ko'rishimiz mumkin. Olima sintagmani faqat semantik va intonatsion birlik deb emas, balki struktur-sintaktik birlik deb ham tushunmoq kerakligini ta'kidlaydi [6]. Bunda, albatta, L.V.Sherbaning ta'limoti ta'siri borligi kuzatiladi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, so'nggi yillarda rus tilshunosligida L.V.Sherbaning sintagma haqidagi ta'limotiga tanqidiy yondashilayotganini ham ko'ramiz. M.I.Olevskayaning ilmiy izlanishlarida L.V.Sherba sintagma xususidagi mulohazalarini berishda masala tavsifiga jiddiy yondashmaganligi aytiladi. Agar L.V.Sherba sintagmani ritmik guruh bilan tenglashtiradigan bo'lsa, u holda yo *ritmik guruh*, yoxud *sintagma* terminlarining birini qo'llashi lozim bo'lganligi alohida ta'kidlanadi. L.V.Sherba fransuz tilshunosi M.Grammon fikriga qo'shib sintagmani fonetik hodisa deb atagan bo'lsa, bugungi fransuz tilshunoslari (masalan, F.Karton) uni qat'iy ravishda sintaktik hodisa deb o'rganmoqdalar [7,605].

Darhaqiqat, sintagma sintaktik hodisadir. U nutqning eng kichik birligi sifatida faoliyat ko'rsatib, nutq jarayonida uning komponentlarining sintagmatik munosabatga kirishuvi uchun asos vazifasini bajaradi. Y.I.Shutova sintagmani nutqning bazal strukturasi sifatida tushunadi va bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: «...это базисная структурная ячейка, молекула синтаксиса» [9,51].

Mazkur fikr bilan to'liq qo'shilish mumkin, zotan, ana shu kichik birlik asosida butun bir matn komponentlari sintagmatik munosabat tashkil etadi. Boshqacha aytganda, sintagma – bu struktur-mazmuniy jihatdan yaxlit holdagi birlik bo'lib, nutq jarayonida so'zlarning o'zaro bog'lanishiga zamin yaratadi.

Y.I.Shutova ta'biri bilan aytganda, gap tarkibida qo'llanilgan sintagma «davlat ichidagi davlat»ga qiyoslanishi mumkin. Shu bois u nutq jarayonida o'zgarmaydi. Masalan, ingliz tilidagi *my brother* sintagmasini olaylik: *My brother lives in London; This is my brother; I gave my brother an apple.* Bunda turli xil gaplar sathida ham *my brother*



sintagmasi o'zgarishsiz qolayotganini ko'ramiz (Mening akam Londonda yashaydi; Bu mening akam; Men akamga olma berdim) [9,52].

Shuni ham aytish kerakki, bugungi tilshunoslikda faqat tobelik munosabatida shakllanayotgan til birliklaridan tashqari, so'zlarning o'zaro tenglik asosida shakllanuvchi sintagmalar xususida ham fikr bildirilmoqda. Bunda sintagmaning nutqning minimal birligi ekanligi nazarda tutilmoqda, albatta. Bunday holatni Y.I.Shutovaning tadqiqot ishlarida kuzatamiz: *kitoblar, qalamlar, daftarlar; qizil, ko'k va yashil* [8,50].

Komponentlari tenglik asosida bog'lanuvchi sintagmalar haqida so'z yuritilganda, albatta, parataktik qurilmalarni ham nazarda tutmog'imiz lozim bo'ladi.

Bunday qurilmalarda aniqlovchi-aniqlanmish munosabati kuzatilmaydi, albatta. Ammo bu o'rinda mazkur qurilmalar ham nutqning minimal birligi sifatida talqin etilaveradi. Agar masala tavsifiga faqat sintagma nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, u holda gipotaktik va parataktik qurilmalarni strukturalariga ko'ra maksimal holatdagi sintagmalar tarzida e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, yuqorida ko'rib o'tilgan barch fikr va mulohazalar asosida sintagmani qat'iy ravishda fonetik hodisa emas, balki grammatik (sintaktik) hodisa sifatida talqin etamiz. Sintagmatik munosabat tushunchasining ham asosida sintagma yotar ekan, uning sintaktik hodisa ekanligi izoh talab qilmaydi.

Adabiyotlar:

1. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию.-М.: Прогресс, 1977.
2. Карцевский С.О. Повторительный курс русского языка.-М.-Л.: Госиздат, 1928.
3. Щерба Л.В. Фонетика французского языка. Изд.2-е.-Л., 1939.
4. Виноградов В.В. Понятие синтагмы в синтаксисе русского языка//Вопросы синтаксиса современного русского языка.-М.: Учпедгиз, 1950.
5. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'qituvchi, 1987.
6. Родионова О.С. К вопросу о синтагме и средствах ее реализации//Вестник Саратовской государственной юридической академии, №5.-2014.
7. Олевская М.И. Синтагма и интонация: возможен ли знак равенства?(в традиции отечественной францезистики)//Вестник ПСПГУ.Ш.Филология. вып.4.-2012.
8. Шутова Е.И. Вопросы теории синтаксиса.-М.: Наука, 1984.

Турниязов Н.К. Относится ли синтагма к фонетическому явлению? В статье речь идёт о лингвистическом статусе синтагмы, по поводу чего, мнения языковедов до сих пор расходятся.

Turniyazov N.K. Does syntagma relate to a phonetic phenomenon? The article deals with the linguistic status of syntagma, about which the opinions of linguists still differ.